



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	--



MA'NAViy-MA'RIFIY FAOLIYAT ORQALI O'SMIRLARDA HUQUQBUZARLIK PROFILAKTİKASINING PEDAGOGİK ASOSLARI

Umarov Qobiljon

Navoiy davlat universiteti maktabgacha va
 boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani o'rinbosari

Annotatsiya: O'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'rni, uning pedagogik asoslari, tarbiyaviy imkoniyatlari hamda ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligining ahamiyati yoritiladi. Yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali huquqbuzarlik profilaktikasini samarali tashkil etish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, huquqbuzarlik profilaktikasi, pedagogik asoslar, o'smirlar tarbiyasi, huquqiy madaniyat, ijtimoiy profilaktika, axloqiy tarbiya, yoshlar siyosati.

Abstract: The role of spiritual and educational activities in preventing juvenile delinquency, their pedagogical foundations, educational potential, and the importance of cooperation among educational institutions, family, and community are examined. Effective ways of organizing crime prevention through the development of adolescents' legal awareness and their education based on national and universal values are scientifically analyzed.

Key words: spiritual and educational activity, crime prevention, pedagogical foundations, adolescent education, legal culture, social prevention, moral education, youth policy.

Аннотация: Роль духовно-просветительской деятельности в профилактике правонарушений среди подростков, её педагогические основы, воспитательные возможности, а также значение сотрудничества образовательных учреждений, семьи и махалли рассматриваются. Научно обоснованы эффективные пути организации профилактики правонарушений посредством формирования правового сознания подростков и их воспитания на основе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: духовно-просветительская деятельность, профилактика правонарушений, педагогические основы, воспитание подростков, правовая культура, социальная профилактика, нравственное воспитание, молодежная политика.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'smirlar davri shaxs shakllanishining murakkab bosqichi bo'lib, bu davrda ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ta'siri ayniqsa kuchli bo'ladi. Shu sababli huquqbuzarliklarning oldini olishda jazolashdan ko'ra profilaktik va tarbiyaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar ko'pincha tarbiyadagi bo'shliqlar, huquqiy bilim yetishmasligi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etmaslik, salbiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat – bu yoshlarni axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqarolik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Uning asosiy maqsadi barkamol, ongli va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan iborat. Pedagogik nuqtayi nazardan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'smirlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;
- axloqiy me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- salbiy xulq-atvor va deviant holatlarning oldini olish;
- yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirish;
- huquqbuzarlik sodir etishga olib keluvchi omillarni kamaytirish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – davra suhbatlari, uchrashuvlar, ma'ruzalar, kitobxonlik kechalari, huquqiy targ'ibot, vatanparvarlik tadbirlari, trening va seminarlar yoshlarning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqbuzarlik profilaktikasi – huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan pedagogik, psixologik, huquqiy va ijtimoiy choralar tizimidir. Pedagogik asoslari quyidagilardan iborat:

1. **Tarbiyaviy yondashuv asosida profilaktika.** Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi o'smir shaxsini ijobiy shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi ongiga "qonunga hurmat", "mas'uliyat", "halollik" tushunchalarini singdirish huquqbuzarlikning oldini oladi.
2. **Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv.** Har bir o'smiring individual xususiyatlari, qiziqishi va psixologik holatini hisobga olgan holda profilaktik ishlar tashkil etilishi lozim.
3. **Oila–maktab–mahalla hamkorligi.** Huquqbuzarlik profilaktikasida faqat maktab emas, balki oila va mahalla ham muhim subyekt hisoblanadi. Ularning hamkorligi tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.
4. **Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya.** O'smir qonunlarni bilsa, o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, natijada huquqbuzarlikka moyillik kamayadi.
5. **Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish.** Sport, san'at, fan to'garaklari va ijodiy mashg'ulotlar yoshlarni salbiy muhitdan uzoqlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'smirlar tarbiyasidagi o'rni va uning huquqbuzarlik profilaktikasidagi ahamiyati masalasi ko'plab olimlar tomonidan yoritilgan. Xususan, I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning hal qiluvchi o'rin tutishini asoslab, yoshlar ongida mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'smirlar o'rtasida salbiy xulq-atvor va huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar tarbiyasi, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, oila, maktab va jamiyat hamkorligini rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa profilaktik faoliyatni tizimli va kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Pedagogik jihatdan mazkur masala A. Avloniy va J. Hasanboyev tadqiqotlarida chuqur asoslab berilgan. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqiy tarbiya va insoniy fazilatlarini shakllantirish yoshlar kamolotining asosi ekanligini ko'rsatadi. J. Hasanboyev esa "Pedagogika nazariyasi" asarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya, huquqiy ongni shakllantirish hamda ijtimoiy muhitning tarbiyaviy ta'sirini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur ilmiy qarashlar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini samarali tashkil etishning nazariy asoslarini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar bir necha usullar asosida to'plandi. Avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik manbalar tahlil qilinib, mavzuga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'tkazilgan kuzatuvlar orqali o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasiga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning amaliy holati o'rganildi. So'rovnomada usuli yordamida o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarning huquqiy ong darajasi hamda profilaktik faoliyatga munosabati aniqlashtirildi.

Suhbat va intervyu usullari orqali esa pedagoglar va mutaxassislarining tajribasi hamda fikrlari yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va statistik qayta ishlash usullari asosida tahlil qilindi. Natijalar o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar aniqlanib, ularning pedagogik ahamiyati baholandi. Shu asosda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali profilaktikaning quyidagi shakllari amaliy jihatdan samarali hisoblanadi: huquqiy targ'ibot tadbirlari, "Yoshlar va qonun" mavzusida uchrashuvlar, profilaktika inspektorlari bilan muloqotlar, huquqiy viktorinalar va tanlovlar, axloqiy-ma'naviy tadbirlar, ma'naviyat soatlari, milliy qadriyatlarga bag'ishlangan kechalar, buyuk ajdodlar merosini targ'ib etish, psixologik-pedagogik treninglar, konfliktlarni hal



etish ko'nikmalari, stressga bardoshlilik mashg'ulotlari, deviant xulq profilaktikasi treninglari, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish, volontyorlik ishlari, ekologik aksiyalar, jamoat tadbirlarida ishtirok. Bunday faoliyat o'smirda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu jarayon samaradorligini oshiradi:

- interfaol metodlar;
- muammoli vaziyatlar tahlili;
- case-study usuli;
- rol o'yinlari;
- debat va munozaralar;
- motivatsion treninglar.

Masalan, "Huquq buzilsa nima bo'ladi?" mavzusidagi rolli o'yin o'smirlarda huquqiy tafakkurni rivojlantiradi. Profilaktik faoliyatda uchraydigan muammolar. Amaliyotda ayrim kamchiliklar kuzatiladi:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ba'zida rasmiy xarakter kasb etishi;
- oila bilan ishlashdagi sustlik;
- individual yondashuv yetishmasligi;
- huquqiy targ'ibotning nazariy qolib ketishi;
- bo'sh vaqtni tashkil etishda tizimlilikning pastligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish profilaktika samaradorligini oshiradi.

So'nggi yillarda jamiyatda yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'zni tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'smirlar bilan ishlashda faqat nazorat yoki jazolash emas, balki ularning ongiga ta'sir etish, qadriyatlar tizimini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish orqali profilaktika olib borishni taqozo etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda innovatsion usullar joriy qilinmoqda. Xususan, interfaol metodlar, treninglar, psixologik mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali o'smirlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish samarali yo'lga qo'yilmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarni faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qilish muhim hisoblanadi.

Yana bir yangilik sifatida maktablarda "profilaktik suhbatlar"ning mazmuni boyitilmoqda. Endilikda bu suhbatlar oddiy ogohlantirish shaklida emas, balki hayotiy misollar, real voqealar, sud amaliyoti misolida olib borilmoqda. Bu esa o'smirlarga huquqbuzarlik oqibatlarini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan foydalanib, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan videodarslar, roliklar va onlayn loyihalar keng yo'lga qo'yilmoqda.

Pedagogik jihatdan qaraganda, o'smirlar bilan ishlashda individual yondashuv kuchaytirilmoqda. Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlari, oilaviy sharoiti, qiziqishlari hisobga olinib, profilaktik ishlar olib borilmoqda. Bu esa "muammoli" deb qaralayotgan o'smirlarni jamiyatdan ajratib qo'yish emas, balki ularni ijtimoiy muhitga moslashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligining kuchaytirilishi muhim yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'smirlarda vatanparvarlik, hurmat, mas'uliyat, halollik kabi fazilatlarini shakllantirish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu maqsadda adabiyot, tarix, san'at darslari bilan integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Yangi yondashuvlardan yana biri – o'smirlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdir. Sport to'garaklari, ijodiy klublar, volontyorlik faoliyati orqali ularning ijtimoiy faolligi oshirilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etgan o'smirlar orasida huquqbuzarlik darajasi ancha past bo'ladi. Shu bois bu yo'nalishdagi ishlar kengaytirilmoqda.

Huquqbuzarlik profilaktikasida ota-onalar bilan ishlash ham yangi bosqichga chiqmoqda. Endilikda ota-onalar uchun seminarlar, treninglar tashkil etilib, ularga farzand tarbiyasidagi zamonaviy yondashuvlar o'rgatilmoqda. Bu esa oiladagi muhitni sog'lomlashtirish orqali o'smirlarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar samaradorlikni oshirmoqda. Innovatsion metodlar, individual yondashuv, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya va ijtimoiy hamkorlik bu borada muhim omillar hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish orqali sog'lom, huquqiy ongli va ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur yo'nalishni takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- ta'lim muassasalarida huquqiy va ma'naviy tarbiya integratsiyasini kuchaytirish;
- profilaktik tadbirlarda interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- "Oila–maktab–mahalla" uchligi hamkorligini yanada mustahkamlash;
- xavf guruhiga kiruvchi o'smirlar bilan individual ishlash tizimini rivojlantirish;
- yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etuvchi to'garak va loyihalarni ko'paytirish;
- huquqbuzarlik profilaktikasida psixolog va pedagog hamkorligini kuchaytirish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy media va raqamli platformalar orqali targ'ib qilish.

O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U yoshlarning huquqiy ongi, axloqiy qarashlari va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik yondashuvlar, huquqiy tarbiya, oila–maktab–mahalla hamkorligi va zamonaviy tarbiya texnologiyalari profilaktika samaradorligini oshiradi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy va amaliy ishlarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RB-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RB-406-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-3026246>
4. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RB-371-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-2387357>
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent.
8. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.